



“Involta” Ilmiy Jurnali

Vebsayt: <https://involta.uz/>

O'ZBEKISTON PENSIYA TIZIMI FAOLIYATI: DAROMADLARI VA HARAJATLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Mamatqulova Fotimaxon Maxammadjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy ish yo'nalishi Magistratura 1-kurs talabasi

Annontatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston pensiya tizimi faoliyati hamda daromadlari va harajatlari tizimini takomillashtirish masalalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, pensiya, ijtimoiy, nafaqa, tizm, soha, rivojlanish, barqarorlik, kelajak, hujjat, kambag'allik, nafaqa.

Mamlakatimizda pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, qariyalar va keksa yoshdagilarga har tomonlama g'amxo'rlik qilish, fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish va sohada mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda davlat pensiyalarini tayinlashda 30 turdag'i hujjat talab etiladi hamda ularni taqdim etishga mas'ul 14 dan ortiq vazirlik va tashkilotlarda idoraviy axborot tizimlari, elektron resurs va ma'lumotlar bazalari mavjud emasligi qog'oz

shaklida ish yuritishdan voz kechish va hujjatlarni yig‘ish jarayonini raqamlashtirishga to‘sinqlik qilib kelmoqda.

Davlat pensiyalarini hisoblash uchun zarur ma’lumotlar elektron bazasini shakllantirish, ushbu jarayonni soddalashtirish, fuqarolarning ovoragarchiliklarini bartaraf etish, pensiya va nafaqalarni yetkazib berish tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek, mazkur yo‘nalishda sog‘lom raqobat muhiti va zamonaviy standartlarni joriy etish maqsadida:

1. Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining quyidagi takliflariga rozilik berilsin:

a) 2022-yil 1-yanvardan boshlab:

Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Pensiya jamg‘armasi) tomonidan moliyalashtiriladigan pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiyalar va boshqa to‘lovlar (keyingi o‘rinlarda — pensiya va nafaqalar)ni to‘lash har uch yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha alohida o‘tkaziladigan tender asosida tanlangan tijorat banki va boshqa ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, tender asosida tanlangan tijorat banki yoki boshqa ixtisoslashgan tashkilot bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq pensiya va nafaqalarni naqd pulda mahalla fuqarolar yig‘inlariga, fuqarolarning yashash manzillariga yetkazib berish majburiyati yuklatiladi;

Oldingi tahrirga qarang.

tanlovda ishtirok etadigan tijorat banklari va boshqa ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan pensiya va nafaqalarni mahalla fuqarolar yig‘ini binosi yoki fuqaroning yashash manziliga yetkazib berish shartlaridan kelib chiqib, xizmat haqi pensiya va nafaqalar to‘lanadigan (yetkazib beriladigan) summaning 1 foizi miqdorida bo‘lishi mumkin. Bunda, pensiya va nafaqalarni yetkazib berish bilan

bog‘liq xarajatlar Pensiya jamg‘armasi va O‘zbekiston Respublikasi respublika budjeti hisobidan to‘lab beriladi.

(1-band “a” kichik bandining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-apreldagi PQ-198-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 08.04.2022-y., 07/22/198/0282-son)

b) 2022-yil 1-iyuldan boshlab:

davlat pensiyalarini tayinlashda fuqarolardan mehnat staji, ish haqi, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘qish hamda harbiy xizmat davri to‘g‘risidagi hujjatlarni talab qilish bekor qilinadi. Bunda, pensiyaga chiqish huquqi paydo bo‘lgan chog‘ida ishlamaydigan fuqarolarga o‘zlarining mehnat daftarchalaridagi mehnat staji to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Bandlikka ko‘maklashish markazlariga murojaat qilish orqali “Yagona mehnat milliy tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksi (keyingi o‘rinlarda — YaMMT IDAK)ga kiritish xizmati joriy etiladi;

davlat pensiyalarini tayinlash YaMMT IDAKga kiritilgan elektron ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi. Bunda, mehnat staji, ish haqi, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘qish hamda harbiy xizmat davri to‘g‘risidagi hujjatlar Pensiya jamg‘armasi tomonidan YaMMT IDAKdan foydalangan holda elektron ma’lumotlar almashinuvi asosida olinadi;

davlat pensiyalarini tayinlash uchun fuqarolardan faqat pasport yoki identifikatsiya ID-kartasi talab etiladi.

Mamlakatimizda pensiya tizimini isloh qilish, xususan, xususiy pensiya fondlarini tashkil etishga ruxsat berish, pensiya fondlarini kapital bozorida ishtirokini ta’minalash O‘zbekiston moliya tizimini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Hozirgi kunda davlat pensiya ta’mnoti tizimi 3,3 mln.dan ortiq kishini yoki mamlakatimiz aholisining qariyb 10 foizini qamrab oladi. Shu jumladan, yosh bo‘yicha pensiya oluvchilar 2502,6 ming kishini, nogironlik bo‘yicha – 360,3 ming

kishi, boquvchisini yo‘qotgani uchun – 168,5 ming kishi, ijtimoiy nafaqa oluvchilar – 294,1 ming kishini tashkil etadi.

Norasmiy sektorda ishlashga majbur bo‘layotganlar daromadlarini rejalashtirishda qiyinchilikka duch kelmoqda

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, aholining o‘rtacha umr ko‘rish yoshi ortib borishi bilan “ishlab topding – to‘la” (pay as you go) tamoyiliga asoslangan pensiya tizimida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy qiyinchiliklar davlat pensiya ta’mnoti tizimini isloh qilishni talab etadi.

Yosh bo‘yicha pensiya oluvchilarning soni oshib borayotgan sharoitda hozirgi mavjud davlat pensiya ta’mnoti tizimi iqtisodiy faol aholi qatlamiga pensiya to‘lovleri yukining oshishiga olib kelmoqda. Shuningdek, xususiy pensiya fondlari kabi uzoq muddatli mablag‘larga ega jamg‘armalarning yo‘qligi kapital bozorini rivojlantirishga imkon bermayapti. Bundan tashqari, norasmiy sektorda ishlashga majbur bo‘layotgan ishchilar, o‘zini o‘zi ish bilan ta’minlovchilar, chet ellarda faoliyat olib borayotgan fuqarolar, qishloqlarda farzand tarbiyasi va uy yumushlari bilan mashg‘ul ayollar o‘zlarining nafaqa hayoti uchun daromadlarini rejalashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Mazkur omillarni inobatga olib, mamlakatimizda pensiya tizimini isloh qilish, xususan, xususiy pensiya fondlarini tashkil etishga ruxsat berish, pensiya fondlarini kapital bozorida ishtirokini ta’minalash O‘zbekiston moliya tizimini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Filippin va Gruziya tajribalariga nazar tashlaymiz

Bu borada, xorijiy mamlakatlar tajribasini, aynan Filippin va Gruziya tajribalarini o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, Gruziya 2019 yil 1 yanvardan yangi pensiya tizimini joriy qildi. Ushbu islohotdan birinchi maqsad pensiya

yoshidagi fuqarolarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'lsa, ikkinchi maqsad kapital bozorini rivojlantirish hisoblanadi.

Gruziyada yangi pensiya tizimini to'liq tadbiq qilishni bir necha bosqichda amalga oshirish rejalashtirilgan. Birinchi bosqichda 2019 yildan 1 yanvardan 40 yoshdan kichik bo'lgan barcha ishchilar (ish bilan ta'minlanganlardan tashqari) yangi pensiya tizimiga majburiy kiritildi. Yoshi 40 yoshdan oshgan ishchilar va o'z-o'zini ish bilan ta'minlaganlar ixtiyoriy ravishda yangi tizimda ishtirok etishlari mumkinligi belgilandi. Gruziya yangi pensiya tizimi 2+2+2 sxemasida ishlaydi. Ya'ni, yillik daromadi 24 000 larigacha (79,6 mln. so'm) bo'lgan ishchilar uchun daromadining 2 foizi miqdorida badal ishchi tomonidan, 2 foizi – ish beruvchi tomonidan va yana qo'shimcha 2 foizi miqdorida davlat tomonidan o'tkaziladi. Yiliga 24 000 laridan 60 000 larigacha (199 mln. so'm) daromad oluvchilar uchun davlat tomonidan 1 foiz miqdorida pensiya badallari o'tkazilib beriladi. Agar yillik daromadi 60 000 laridan oshsa, davlat tomonidan ulush qo'shilmaydi.

Shuningdek, birinchi bosqichda yangi pensiya tizimida qatnashish yoki qatnashmasligidan qat'iy nazar nafaqaga chiqqan har bir gruziyalik standart davlat pensiyasini (hozirda 180 lari – 62 AQSh dollar) olishga haqli. Mazkur pensiya tizimida qatnashuvchilar o'z jamg'armalarini investitsiyalarga yo'naltirishda uchta tanlovga egalar. Ya'ni, qatnashuvchilar kelajak uchun jamg'arayotgan mablag'larini investitsiyalarning risk darajasi va undan keladigan daromaddan kelib chiqib, kam riskli, o'rtacha riskli va yuqori riskli investitsiyalarga yo'naltirishlari mumkin. Shunday bo'lsada, a'zolikning dastlabki besh yilda qatnashuvchilar faqat kam riskli investitsiya portfelini tanlay oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

1 Foydalanilgan adabiyotlar 1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020-yil // <https://president.uz/oz/lists/view/4057>

2. Батова Б.З. и др. Проблемы финансирования образования в России//Фундаментальные исследования. 2016.-№5-3.-С.546-550

3. O’lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik-T.: TDIU. 2014 409-bet.

4. Malikov T., Haydarov N. Davlat byudjeti. O‘quv qo‘llanma / Toshkent Moliya instituti. T.: “Iqisod-moliya”, 2007. 84-bet.

5. Nurmuhammedova B. va b. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim xarajatlarini rejallashtirish. “InfoCapitalGroup” 2013.-447.450 b.